



INSTITUTIONAL BASIS OF ENVIRONMENTAL STABILITY

Ibodulla Elmurzayevich Shaymardonov

*Lecturer at the Department of Social Sciences, Shahrisabz State Pedagogical Institute,
Candidate of Historical Sciences*

E-mail: ibodulla11@gmail.com

Shahrisabz, Uzbekistan

Doniyor Shukhratov

*1st-year Master's student in the program "Methods of Teaching Social and Humanitarian
Sciences (Foundations of Spirituality)",*

Shahrisabz State Pedagogical Institute

E-mail: doniyorshukhratov4033@gmail.com

Shahrisabz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: environmental sustainability, institutional approach, environmental policy, environmental management, environmental protection, sustainable development, environmental awareness.

Abstract: This article analyzes the process of stabilizing the ecological environment scientifically and theoretically based on an institutional approach. The research substantiates the interrelated and complementary functions of public administration, economic regulation, public participation, and international cooperation institutions in ensuring environmental sustainability. The systematic importance of regulatory and legal norms, management mechanisms, and economic incentives in maintaining ecological balance is revealed. As a result, scientific findings highlight the direct relationship between the effectiveness of environmental policy and the consistency of the institutional system and the level of development of environmental awareness.

Received: 17.04.26

Accepted: 18.04.26

Published: 19.04.26

EKOLOGIK MUHITNI BARQARORLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Ibodulla Elmurzayevich Shaymardonov

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi

E-mail: ibodulla11@gmail.com

Shahrisabz, O'zbekiston

Doniyor Shuxratov

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(Ma'naviyat asoslari) yo'nalishi 1-kurs magistranti

E-mail: doniyorshuxratov4033@gmail.com

Shahrisabz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ekologik barqarorlik, institutsional yondashuv, ekologik siyosat, ekologik boshqaruv, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, ekologik ong.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik muhitni barqarorlashtirish jarayoni institutsional yondashuv asosida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida ekologik barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi, iqtisodiy tartibga solish, jamoatchilik ishtiroki va xalqaro hamkorlik institutlarining o'zaro bog'liq hamda to'ldiruvchi funksiyalari asoslab beriladi. Normativ-huquqiy me'yorlar, boshqaruv mexanizmlari va iqtisodiy rag'batlantirish vositalarining ekologik muvozanatni saqlashdagi tizimli ahamiyati ochib beriladi. Natijada ekologik siyosat samaradorligi institutsional tizimning izchilligi va ekologik ongning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqligi ilmiy xulosalar orqali yoritiladi.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ**Ибодулла Элмурзаевич Шаймарданов**

Преподаватель кафедры социальных наук

Шахрисабзский государственный педагогический институт

Кандидат исторических наук

E-mail: ibodulla11@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

Дониёр Шухратов

Магистрант 1 курса направления

«Методика преподавания социальных и гуманитарных наук (Основы духовности)»

Шахрисабзский государственный педагогический институт

E-mail: doniyorshuxratov4033@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экологическая устойчивость, институциональный подход, экологическая политика, управление окружающей средой, охрана окружающей среды, устойчивое развитие, экологическая осведомленность.

Аннотация: В данной статье проводится научный и теоретический анализ процесса стабилизации экологической среды на основе институционального подхода. Исследование обосновывает взаимосвязанные и взаимодополняющие функции государственного управления,

экономического регулирования, участия общественности и институтов международного сотрудничества в обеспечении экологической устойчивости. Раскрывается системная важность нормативно-правовых актов, механизмов управления и экономических стимулов в поддержании экологического баланса. В результате научные исследования подчеркивают прямую взаимосвязь между эффективностью экологической политики, стабильностью институциональной системы и уровнем развития экологического сознания.

Kirish. Zamonaviy jamiyat rivojlanishi sharoitida atrof-muhit holatining izchil yomonlashuvi global miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va inson xavfsizligiga tahdid soluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sanoat va texnologik jarayonlarning jadallashuvi, urbanizatsiyaning kengayishi hamda tabiiy resurslardan yuqori intensivlikda foydalanish ekologik tizimlarning tabiiy muvozanatini izdan chiqarib, ularning o‘zini-o‘zi tiklash salohiyatini sezilarli darajada cheklamoqda. Antropogen yuklamaning ortib borishi ekologik xavflarning murakkablashuviga olib kelib, atrof-muhitni muhofaza qilish masalasini alohida sohaga oid vazifa emas, balki barqaror taraqqiyotning ustuvor sharti sifatida kun tartibiga chiqarmoqda. Mazkur holat ekologik muammolarni faqat texnik, texnologik yoki iqtisodiy choralar bilan cheklab bo‘lmasligini, balki ularni kompleks va tizimli tarzda boshqarishga qaratilgan institutsional yondashuv zarurligini taqozo etadi.

Ekologik muhitni barqarorlashtirish institutsional yondashuv doirasida davlat boshqaruvi mexanizmlari, huquqiy-me‘yoriy tartibga solish, iqtisodiy rag‘batlantirish vositalari hamda jamoatchilik ishtirokining o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali ta‘minlanadi. Ushbu yondashuv ekologik siyosatning izchil va barqaror amalga oshirilishini ta‘minlab, ekologik jarayonlarda ishtirok etuvchi subyektlar o‘rtasidagi vakolatlar va mas‘uliyatni aniq chegaralashga xizmat qiladi. Institutsional tizimning samarali faoliyati ekologik resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois ekologik muhitni barqarorlashtirishning institutsional asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy ekologik boshqaruv nazariyasi va amaliyotining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Ekologik muhitni barqarorlashtirish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda keng tahlil qilinadi. Jahon ilmiy adabiyotlarida ekologik muammolarni hal etishda institutsional yondashuv ustuvor

metodologik asos sifatida qaralib, ekologik barqarorlikni ta'minlash faqat texnologik va texnik yechimlar bilan emas, balki boshqaruv institutlarining samaradorligi orqali amalga oshirilishi ta'kidlanadi. Xususan, institutsional iqtisodiyot nazariyasi vakillari D. North va E. Ostrom ekologik resurslardan foydalanish jarayonida qoidalar, me'yorlar va tashkilotlar tizimi muhim tartibga soluvchi omil ekanligini asoslab, ekologik muammolarning chuqurlashuvi ko'p hollarda institutsional nomukammallik va boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi bilan bog'liq ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradilar [1].

Ekologik boshqaruv masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda davlat institutlarining roli alohida e'tirof etiladi. H. Daly va J. Meadowcroft ishlarida ekologik siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda normativ-huquqiy bazaning mustahkamligi, strategik rejalashtirish hamda davlat institutlarining faol ishtiroki ekologik barqarorlikni ta'minlashning asosiy institutsional sharti sifatida talqin etiladi [3]. Ushbu yondashuv O'zbekiston misolida ham tasdiqlanib, B. N. Omonov ekologik siyosatni davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish institutsional barqarorlikni ta'minlashning muhim omili ekanligini ko'rsatadi [5]. Muallifning fikricha, ekologik siyosat samaradorligi davlat institutlarining izchil faoliyati va huquqiy mexanizmlarning amaliy ijrosi bilan bevosita bog'liqdir.

Ayrim tadqiqotchilar ekologik muammolarni hal etishda faqat markazlashgan boshqaruv yetarli emasligini ta'kidlab, iqtisodiy tartibga solish va rag'batlantirish mexanizmlarini keng joriy etish zarurligini ilgari suradilar. N. Gunningham va hamkorlarining tadqiqotlarida ekologik soliqlar, to'lovlar va subsidiyalar xo'jalik yurituvchi subyektlarning ekologik mas'uliyatini oshiruvchi samarali institutsional vosita sifatida baholanadi [6]. E. Barbier esa ekologik resurslardan oqilona foydalanishni iqtisodiy tenglik va barqaror rivojlanish bilan uyg'unlashtirish institutsional siyosatning muhim yo'nalishi ekanligini asoslaydi [8].

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda jamoatchilik institutlari va fuqarolik jamiyatining ekologik boshqaruvdagi ishtirokiga alohida e'tibor qaratilmoqda. G. A. Ochilova va hammualliflar ekologik globallashuv sharoitida jamoatchilik nazorati, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda ekologik ta'lim mexanizmlari ekologik siyosatning ochiqligi va hisobdorligini ta'minlovchi muhim institutsional omillar ekanligini ta'kidlaydilar [7]. Tadqiqotchilar ekologik ong va ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanishi institutsional tizimning norasmiy komponentlarini mustahkamlab, ekologik muhitni barqarorlashtirish jarayonining uzoq muddatli samaradorligini oshirishini ilmiy asosda ko'rsatib beradilar.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ekologik muammolarning transchegaraviy xususiyati global institutlar faoliyatini kuchaytirishni taqozo etishi qayd etiladi. J. Meadowcroft hamda E. Barbier tadqiqotlarida xalqaro ekologik konvensiyalar va bitimlar milliy siyosatlarni muvofiqlashtirish

hamda umumiy ekologik standartlarni joriy etishning muhim institutsional mexanizmi sifatida baholanadi [4]. Shu bilan birga, B. N. Omonovning soʻnggi ishlarida xalqaro ekologik normalarning samarali ijrosi milliy institutsional muhit va davlat boshqaruvi tizimining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bogʻliq ekanligi taʼkidlanadi [9].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar ekologik muhitni barqarorlashtirish masalasi koʻp darajali va kompleks institutsional yondashuvni talab etishini koʻrsatadi. Mavjud tadqiqotlarda ekologik barqarorlikning ayrim jihatlari yetarlicha yoritilgan boʻlsa-da, davlat, iqtisodiy, jamoatchilik va xalqaro institutlarning oʻzaro integratsiyalashgan faoliyatini yagona tizim sifatida chuqur tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur holat ekologik muhitni barqarorlashtirishning institutsional asoslarini yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etish zaruratini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ekologik muhitni barqarorlashtirishning institutsional asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga yoʻnaltirilgan boʻlib, unda kompleks va tizimli metodologik yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etdi. Tadqiqotning nazariy asosini barqaror rivojlanish konsepsiyasi, institutsional iqtisodiyot nazariyasi hamda ekologik boshqaruv sohasidagi zamonaviy ilmiy qarashlar tashkil etadi. Ushbu metodologik yondashuv ekologik jarayonlarni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan uzviy bogʻliq holda tahlil qilish, ekologik muammolarning vujudga kelish sabablari va ularni bartaraf etish mexanizmlarini institutsional kontekstda ochib berish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy metodlar oʻzaro uygʻunlashgan holda qoʻllanildi. Tahlil va sintez metodlari orqali ekologik barqarorlikka taʼsir koʻrsatuvchi davlat, iqtisodiy, jamoatchilik va xalqaro institutlar aniqlanib, ularning funksional oʻzaro bogʻliqligi va institutsional oʻrni asoslab berildi. Taqqoslash hamda tizimli yondashuv metodlari turli boshqaruv darajalarida ekologik siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashga xizmat qildi. Shuningdek, huquqiy-normativ tahlil ekologik boshqaruv sohasidagi meʼyoriy-huquqiy hujjatlarning institutsional rolini aniqlashda, iqtisodiy-tahliliy metodlar esa ekologik tartibga solish va ragʻbatlantirish mexanizmlarining samaradorligini baholashda qoʻllanildi. Mavjud ilmiy manbalarni tizimli umumlashtirish asosida ekologik muhitni barqarorlashtirishning institutsional mexanizmlariga oid nazariy xulosalar shakllantirildi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari ekologik muhitni barqarorlashtirish jarayoni alohida institutsional elementlarning mavjudligi bilan emas, balki ularning oʻzaro integratsiyalashgan holda ishlash darajasi bilan belgilanayotganini koʻrsatdi. Oʻtkazilgan tahlillar asosida ekologik siyosat samaradorligi uch darajali institutsional tizim - normativ-huquqiy tartibga solish, boshqaruv koordinatsiyasi va monitoring-nazorat mexanizmlarining uzviy

uyg'unligiga bog'liq ekanligi aniqlashtirildi. Bu holat institutsional tizimlar samaradorligi ekologik boshqaruv natijalarini belgilovchi asosiy omil ekanligi haqidagi nazariy qarashlar bilan mos keladi [1]. Xususan, normativ-huquqiy bazaning mavjudligi ekologik barqarorlik uchun zarur shart bo'lsa-da, yetarli omil emasligi, uning real samarasi faqat institutsional ijro mexanizmlarining izchil ishlashi orqali namoyon bo'lishi ilmiy asoslandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ekologik strategiyalar va dasturlarni amalga oshirish jarayonida vakolat va mas'uliyatning aniq taqsimlanishi, institutsional koordinatsiyaning mavjudligi hamda ekologik monitoring tizimining uzluksiz faoliyati ekologik siyosatning funksional samaradorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Ushbu natija ekologik siyosatni samarali amalga oshirish davlat institutlarining izchil faoliyatiga bog'liqligi haqidagi ilmiy xulosalarni tasdiqlaydi [3]. Aksincha, boshqaruv institutlari o'rtasidagi funksional uzilishlar va muvofiqlashtirishning sustligi ekologik choralarni fragmentar va qisqa muddatli xarakterga olib kelib, tizimli barqarorlikka erishish imkoniyatlarini cheklashi aniqlandi. Bu holat ekologik muammolarni hal etishda institutsional yaxlitlikning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Iqtisodiy va jamoatchilik institutlari faoliyatining qiyosiy tahlili ekologik barqarorlikni ta'minlashda ularning sinergetik ta'siri mavjudligini ko'rsatdi. Iqtisodiy rag'batlantirish vositalari (soliq imtiyozlari, ekologik to'lovlar, subsidiyalar) xo'jalik yurituvchi subyektlarning ekologik xulq-atvorini transformatsiya qilishga xizmat qilsa, bu holat iqtisodiy tartibga solish vositalarining ekologik mas'uliyatni oshirishdagi roli to'g'risidagi ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi [6; 8]. Jamoatchilik institutlari esa ekologik siyosatning legitimligi, ochiqligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini kuchaytiruvchi norasmiy institutsional omil sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi, bu esa ekologik boshqaruvda fuqarolik jamiyati ishtirokining muhimligini ko'rsatgan tadqiqotlar bilan uyg'unlashadi [7]. Shu tariqa, rasmiy va norasmiy institutlar o'rtasidagi funksional uyg'unlik ekologik boshqaruv samaradorligini oshiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari xalqaro ekologik institutlar bilan hamkorlik milliy ekologik boshqaruv tizimini institutsional modernizatsiya qilishda katalizator vazifasini bajarishini ko'rsatdi. Xalqaro standartlar, texnologik tajribalar va boshqaruv modellarining milliy tizimga integratsiyalashuvi ekologik siyosatning adaptivligini oshirib, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash imkonini yaratadi. Ushbu natija ekologik siyosatni xalqaro institutlar bilan uyg'unlashtirish zarurligi haqidagi ilmiy yondashuvlar bilan hamohangdir [4].

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot ekologik muhitni barqarorlashtirish jarayoni alohida boshqaruv choralari emas, balki ko'p darajali va o'zaro bog'liq institutsional tizimga

tayanishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tahlil natijalari ekologik barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi institutlari, iqtisodiy tartibga solish mexanizmlari, jamoatchilik ishtiroki hamda xalqaro hamkorlikning o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Ekologik siyosat samaradorligi normativ-huquqiy me'yorlarning mavjudligi bilangina emas, balki ularning amaliy ijrosi, institutsional koordinatsiya darajasi hamda ekologik boshqaruv jarayonlarining tizimli tashkil etilishi bilan bevosita bog'liqligi aniqlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqot ekologik muhitni barqarorlashtirishda institutsional yondashuvni izchil kuchaytirish zarurligini tasdiqladi. Davlat va nodavlat institutlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ekologik ongni rivojlantirish ekologik siyosat samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi. Natijada ekologik muhitni barqarorlashtirishning integratsion institutsional modeli konseptual jihatdan asoslab berilib, uning ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etishi ko'rsatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. North D. C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. - Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
2. Ostrom E. *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. - Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
3. Daly H. E. *Ecological Economics and Sustainable Development*. - Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2007.
4. Meadowcroft J. Environmental political economy, technological transitions and the state // *New Political Economy*. - 2009. - Vol. 14, № 4. - P. 479–498.
5. Омонов Б. Н. Стратегические основы экологической политики Узбекистана // *Философия и право*. - 2024. - Т. 28, № 2. - С. 41–43.
6. Gunningham N., Grabosky P., Sinclair D. *Smart Regulation: Designing Environmental Policy*. - Oxford: Oxford University Press, 1998.
7. Очилова Г. А. и др. Экологическая глобализация и её социальное место в системе глобализационных процессов // *Journal of Survey in Fisheries Sciences*. - 2023. - Т. 10, № 1(S). - С. 5000–5006.
8. Barbier E. B. *Nature and Wealth: Overcoming Environmental Scarcity and Inequality*. - London: Palgrave Macmillan, 2015.

9. Омонов Б. Н. Философские основы формирования государственной социально-экологической политики // American Journal of Modern World Sciences. - 2025. - Т. 2, № 11. - С. 61–73.